

**2026/2027-o'quv yili uchun institutning 1-2-bosqich talabalariga
grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash jarayoni
Apellyatsiya komissiyasining yig'ilish**

BAYONI № 4

2026-yil - 10-08

Andijon shahri

Yig'ilish o'tkazilgan joy: Institut kichik majlislar zali

Ishtirok etdilar:

- **Komissiya raisi:** M.Isroilov — Talabalar orasida ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan rektor maslahatchisi
- **Komissiya kotibi:** S.No'monjonov — Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi uslubchisi, institut "Besh muhim tashabbus markazi" rahbari
- **Taklif etilganlar (mas'ul xodimlar):** apellyatsiya komissiyasi a'zolari to'liq tarkibda va talabalarni baholagan tyutorlar

KUN TARTIBI:

1. 2026–2027-o'quv yili uchun talabalarga davlat granti kvotalarini qayta taqdim etish va taqsimlash jarayonida tyutorlar tomonidan qo'yilgan ijtimoiy faollik ballaridan norozilik bildirib kelib tushgan talabalarning arizalarini (apellyatsiyalarini) ko'rib chiqish, murojaatlarni xolis, haqqoniy va shaffof hal etish masalalari.

YIG'ILISHNING BORISHI:

Yig'ilishni komissiya raisi M.Isroilov kirish so'zi bilan ochib, quyidagi fikrlarni bildirdi:

- Assalomu alaykum, hurmatli komissiya a'zolari, muhtaram tyutorlar va yig'ilish qatnashchilari!

Hammamizga ma'lumki, bugungi kunda yurtimizda oliy ta'lim sifatini oshirish, talaba-yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularga munosib shart-sharoitlar yaratish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Xususan, 2026–2027-o'quv yili uchun talabalarga davlat granti kvotalarini qayta taqdim etish va taqsimlash jarayoni ham ana shu adolat va shaffoflik tamoyillari asosida amalga oshirilmoqda.

Bugun biz mazkur jarayon doirasida tyutorlar tomonidan qo'yilgan ijtimoiy faollik ballaridan norozilik bildirib, institutimizdagi Apellyatsiya komissiyasiga jami 7 ta ariza bilan murojaat qilgan talabalarning masalasini ko'rib chiqish uchun yig'ilib turibmiz.

Ochiq aytish kerak, har bir talabaning ortida uning mehnati, o'qishga bo'lgan ishtiyoqi, kundalik faolligi va kelajagi turibdi. Shuning uchun bu yerda o'tirgan har birimizdan — xoh komissiya a'zosi bo'laylik, xoh talabaning hujjatini baholagan tyutor bo'laylik — o'ta yuqori xolislik, adolat va professional yondashuv talab etiladi. Bizning asosiy vazifamiz — kelib tushgan har bir murojaatni chuqur va har tomonlama o'rganib chiqish, haqli e'tirozlar bo'lsa, uni adolatli hal etish, aksincha, qo'yilgan ballar asosli bo'lsa, buni talabaning o'ziga to'g'ri va tushunarli qilib tushuntirishdir.

Jarayonda hech qanday subyektivizmga, loqaydlikka yoki yengil-elpi qarashga yo'l qo'yilmaydi. Har bir ariza qonunchilik va amaldagi mezonlar doirasida shaffof ko'rib chiqilishi shart. Keling, ishni boshlaymiz, har bir murojaatni alohida ko'rib chiqib, oqilona qarorga kelamiz."

Shundan so'ng komissiya raisi navbatdagi masalalarni muhokama qilish uchun so'zni boshqa ishtirokchilarga berdi.

Ilk murojaat bilan ishtirokchilarni komissiya kotibi S.No'monjonov tanishtirib o'tdi.

(Komissiya kotibi S.No'monjonov so'zga chiqib, quyidagilarni ma'lum qildi:)

- Hurmatli komissiya a'zolari, navbatdagi murojaat talaba Umarova Diyora Fazliddin qizidan kelib tushgan. Talaba o'z arizasida 4 ta banddan noroziligini bildirgan:

1. O'zi tashkil qilgan to'garakka past ball (6 ball) qo'yilgani;
2. Sport bilan shug'ullanish yo'nalishida atigi 1 ball berilgani;
3. Toza-ozoda yurish bo'yicha umuman ball qo'yilmagani;
4. Boshqa ma'naviy yo'nalishlarga ham atigi 1 balldan berilgani.

Arizadagi holatlarni tyutor ishtirokida chuqur o'rganib chiqdik. E'tiborli jihat, murojaatdagi 2-band (sport bilan shug'ullanish) va 3-band (toza-ozoda yurish) aslini olganda bitta umumiy mazmunni — talabaning sport va kundalik faolligi hamda tartib-intizomi bilan bog'liq jihatlarni qamrab olgan bo'lib, o'rganish

davomida tyutorning e'tiborsizligi va texnik xatosi oqibatida ushbu yo'nalishlardagi haqiqiy natijalari to'liq inobatga olinmagani aniqlandi.

1 va 4-bandlar bo'yicha esa tyutor tomonidan qo'yilgan ballar amaldagi mezonlarga to'la mos kelishi va haqqoniy ekani o'z tasdiqini topdi. Biroq sport va toza-ozoda yurish yo'nalishlaridagi aniqlangan xatolik hamda haqli e'tirozlarni inobatga olib, talabaga jami 4 ball qo'shib berilishi maqsadga muvofiq deb topildi.

Shundan so'ng komissiya arizani va keltirilgan asoslarni ma'qullab, ijobiy hal etdi.

(Komissiya kotibi S.No'monjonov so'zga chiqib, ikkinchi murojaat mazmuni bilan tanishtirdi:)

- Hurmatli komissiya a'zolari, ikkinchi murojaat 1-kurs 02-25-guruh talabasi Mamatqulov Kamoliddin G'ayratjon o'g'lidan kelib tushgan.

Talaba o'z murojaatida shuni ma'lum qilgan: grantga ariza yuborayotgan paytda uning umumiy bali 80.06 chiqqan va u shu ko'rsatkich bilan arizasini rasman yuborgan. Biroq ariza topshirish muddati tugallangandan keyin my.hemis.uz elektron platfromasida uning umumiy bali 88.06 ga o'zgarib qolganini ko'rgan va hozir ham shunday ko'rsatib turibdi. Talaba agar bali keyinchalik ko'tarilishini oldindan bilganida arizasini boshqatdan yuborishini, lekin hozir tizimda uning ariza bo'yicha bali eski holatda — 80.06 bo'lib turgani va bu borada qanday yo'l tutishni so'rab murojaat qilganini bildirdi.

Mazkur holat va platformadagi ma'lumotlar mas'ullar ishtirokida chuqur o'rganib chiqildi. O'rganish natijalariga ko'ra, ariza topshirish vaqtidagi tasdiqlangan va qabul qilingan rasmiy ball 80.06 ekani qayd etildi. Elektron bazadagi keyingi o'zgarishlar belgilangan muddat va reglamentdan keyin shakllangani sababli, amaldagi tartibga muvofiq talabaning arizasidagi ball o'zgarishsiz qoldirildi.

Shundan so'ng komissiya a'zolari tomonidan mazkur holat yuzasidan talabaga qonunchilik va nizom talablari asosida tushuntirish berilishi ma'qullandi.

(Komissiya kotibi S.No'monjonov so'zga chiqib, uchinchi murojaat mazmuni bilan tanishtirdi:)

- Hurmatli komissiya a'zolari, navbatdagi murojaat 2-kurs 11-24-guruh talabasi Sotvoldiyeva Mushtariy Ixtiyorjon qizidan kelib tushgan.

Talaba o'z arizasida dastlabki kiritgan xalqaro sertifikat (10 ballik) bekor qilingani, uning o'miga 3 ballik boshqa sertifikatini kiritmoqchi bo'lganini, biroq tyutori Dilnoza Abdurahmonova buni tasdiqlamaganini bildirgan. Talabaning ta'kidlashicha, unda institut miqyosida 1-o'rinni olgan nafaqat bitta, balki ikkita shunday sertifikat mavjud bo'lib, amaldagi nizomga muvofiq ulardan hech bo'lmaganda 1 tasiga 3 ball berilishi kerakligini so'rab murojaat qilgan.

Mazkur murojaat mas'ullar va tyutor ishtirokida atroflicha o'rganib chiqildi. O'rganish natijalariga ko'ra, talabaning ushbu yo'nalishda taqdim etgan hujjati va vajlari asosli deb topildi. Amaldagi nizom talablaridan kelib chiqqan holda, talabaning haqli e'tirozi qanoatlantirildi va unga tegishli yo'nalish bo'yicha 3 ball qo'shib berilishi ma'qullandi.

Shundan so'ng komissiya a'zolari tomonidan ushbu murojaat ham ijobiy hal etildi.

(Komissiya kotibi S.No'monjonov so'zga chiqib, to'rtinchi murojaat mazmuni bilan tanishtirdi:)

- Hurmatli komissiya a'zolari, navbatdagi murojaat Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti 3-bosqich talabasi A'zamjonova Mushtariybegim Azizbek qizidan kelib tushgan.

Talaba o'z arizasida ijtimoiy faollik indeksining "5 muhim tashabbus doirasidagi to'garaklardagi ishtiroki" mezon bo'yicha 3 ta faoliyatini tasdiqlovchi hujjatlarni platformaga yuklaganini, ushbu mezon uchun maksimal 20 ball belgilangan bo'lsa-da, unga 14 ball berilganidan noroziligini bildirgan. Shuningdek, u boshqa ayrim talabalar ushbu mezon bo'yicha maksimal 20 ball olganini ko'rgani, baholash mezonlari barcha uchun bir xil va xolis qo'llanilishini hamda uning hujjatlari qayta ko'rib chiqilib, balli o'zgartirilishini so'rab murojaat qilgan.

Mazkur murojaat mas'ullar va tyutor ishtirokida atroflicha o'rganib chiqildi. O'rganish natijalariga ko'ra, talabaning taqdim etgan hujjatlari va mezonlar talablari solishtirilib, uning vajlari asosli deb topildi. Unga nisbatan mezonlarni bir xilda qo'llash hamda haqli e'tirozini qanoatlantirish maqsadida, mazkur mezon bo'yicha tegishli ballar qayta ko'rib chiqilib, talabaga qo'shimcha 6 ball qo'shib berilishi (jami maksimal 20 ballga yetkazilishi) ma'qullandi.

Shundan so'ng komissiya a'zolari tomonidan ushbu murojaat ham bir ovozdan ijobiy hal etildi.

(Komissiya kotibi S.No 'monjonov so'zga chiqib, beshinchi murojaat mazmuni va o'rganish natijalari bilan tanishtirdi:)

- Hurmatli komissiya a'zolari, navbatdagi murojaat Roman-german va slavyan tillari fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish: Rus tili yo'nalishi 2-kurs 02-24-guruh talabasi Ortiqaliyeva Ruxshona Abdupatto qizidan kelib tushgan.

Talaba o'z arizasida "5 muhim tashabbus doirasidagi to'garaklardagi ishtiroki" bandida tyutor Sirojiddin Eshonqulov tomonidan baholash jarayonida jiddiy qoidabuzarliklarga yo'l qo'yilgani, ba'zi talabalarning yuklagan hujjatlari mezonlarga mos kelmasa-da, ularga asossiz ravishda yuqori ballar (maksimal 20 ball yoki 16 ball) berilganini bildirib, ushbu holatni qayta ko'rib chiqishni so'ragan.

Mazkur murojaat asosida ko'rsatib o'tilgan guruhdagi **6 nafar talabani** (1. Hoshimova Gulhayoxon Zohidjon qizi; 2. Axmadjonova Gulhayo Zafarbek qizi; 3. Karimova Moxigul Abdullayevna; 4. Kan Viktoriya Vyacheslavovna; 5. Ortiqaliyeva Ruxshonaxon Abdupatto qizi; 6. Qosimova Sojidadonu Sherzodbek qizi) baholash natijalari va platformaga yuklagan hujjatlari komissiya a'zolari tomonidan to'liq tekshirib chiqildi.

O'rganish natijalariga ko'ra, haqiqatan ham joylangan hujjatlar nizomda keltirilgan talablardan farqli ekani, baholashda kamchiliklarga yo'l qo'yilgani aniqlandi. Shundan kelib chiqib, adolatlilikni ta'minlash maqsadida quyidagi talabalarning ballarini qayta ko'rib chiqish belgilandi:

- **Hoshimova Gulhayoxondan — 10 ball;**
- **Axmadjonova Gulhayodan — 8 ball;**
- **Karimova Moxiguldan — 10 ball;**
- **Kan Viktoriyadan — 10 ball;**
- **Murojaat qiluvchi Ortiqaliyeva Ruxshonadan — 9 ball;**
- **Qosimova Sojidadonudan — 8 ball olib tashlanishi belgilandi.**

Shundan so'ng komissiya a'zolari ushbu masalani atroflicha muhokama qilib, adolatli va qonuniy qarorni bir ovozdan ma'qulladilar.

Keyingi murojaatchi Roman-german va slavyan tillari fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish: Rus tili yo'nalishi 2-kurs 02-24-guruh talabasi Jalilova Jasmina Dilshodbek qizining murojaati ham yuqoridagi bilan bir xil ekani sababli, qayta muhokama qilinmadi.

(Komissiya kotibi S.No'monjonov so'zga chiqib, yettinchi murojaat mazmuni va o'rganish natijalari bilan taniqtirdi:)

- Hurmatli komissiya a'zolari, oxirgi murojaat 2-kurs 211-24-guruh talabasi Soliyeva Husnidabonu Dilmurod qizidan kelib tushgan.

Talaba o'z arizasida 5 tashabbus doirasida o'zi tashkil qilgan to'garak vaqti bo'yicha e'tirozga uchragach, o'zi ishtirok etgan boshqa 3 ta to'garakni qaytadan joylaganini, biroq ularga 15 ball berilganini bildirgan. Shuningdek, u ayrim talabalar atigi 2 ta to'garak joylasa ham tyutorlari tomonidan maksimal ball olganini, ularning joylagan ishlari aslida to'garak emas, shunchaki tadbirlar ekanini ta'kidlab, o'zining ballarini ham adolatli ravishda ko'tarib berishni yoki mezonlarni barcha uchun teng qo'llashni so'rab murojaat qilgan.

Mazkur murojaat mas'ullar va tyutor ishtirokida atroflicha o'rganib chiqildi. O'rganish natijalariga ko'ra, talabaning taqdim etgan 3 ta to'garak bo'yicha hujjatlari va vajlari haqli deb topilib, uning faolligini inobatga olgan holda mazkur mezon bo'yicha qo'shimcha 5 ball qo'shib berilishi (jami maksimal ballga yetkazilishi) ma'qullandi."

Shundan so'ng komissiya a'zolari barcha 7 ta murojaat ko'rib chiqilganini inobatga olib, umumiy xulosalarni tasdiqladilar.

YIG'ILISH QAROR QILDI:

1. Talabalarning ijtimoiy faollik ballari yuzasidan kelib tushgan jami 7 ta apellyatsiya arizasi komissiya a'zolari, mas'ul xodimlar va tyutorlar ishtirokida atroflicha o'rganib chiqilib, qonunchilik va amaldagi mezonlar asosida to'liq ko'rib chiqilganligi ma'qullansin.

2. Murojaat qilgan talabalar bo'yicha quyidagi qarorlar qabul qilinsin:

- o Umarova Diyora Fazliddin qizining sport yo'nalishidagi aniqlangan texnik xatolikni inobatga olgan holda, unga qo'shimcha 4 ball qo'shib berilsin;

- o Mamatqulov Kamoliddin G'ayratjon o'g'lining murojaati bo'yicha ariza topshirish vaqtidagi tasdiqlangan rasmiy bali 80.06 ekani inobatga olinib, platformadagi keyingi o'zgarishlar belgilangan muddatdan keyin shakllangani sababli balli o'zgarishsiz qoldirilsin;

- o Solvoldiyeva Mushtariy Ixtiyorjon qizining taqdim etgan hujjati asosli deb topilib, unga tegishli yo'nalish bo'yicha 3 ball qo'shib berilsin;

- o A'zamjonova Mushtariybegim Azizbek qizining "5 muhim tashabbus doirasidagi to'garaklardagi ishtiroki" mezonini bo'yicha haqli e'tirozi

qanoatlantirilib, unga qo'shimcha 6 ball qo'shib berilsin (jami maksimal 20 ballga yetkazilsin);

o **Ortiqaliyeva Ruxshona Abdupatto** qizining arizasiga asosan guruhdagi talabalarning yuklagan hujjatlari qayta tekshirilganda aniqlangan kamchiliklar va nomuvofiqliklarga ko'ra adolatlilikni ta'minlash maqsadida: **Hoshimova Gulhayoxondan — 10 ball, Axmadjonova Gulhayodan — 8 ball, Karimova Moxiguldan — 10 ball, Kan Viktoriyadan — 10 ball, murojaat qiluvchi Ortiqaliyeva Ruxshonadan — 9 ball hamda Qosimova Sojidabonudan — 8 ball olib tashlansin.** (Shuningdek, ushbu band bo'yicha kelib tushgan **Jalilova Jasmina Dilshodbek** qizining murojaati ham mazkur qaror doirasida bir xil tartibda e'tirof etilsin);

o **Soliyeva Husnidabonu Dilmurod** qizining taqdim etgan 3 ta to'garak bo'yicha vajlari haqli deb topilib, uning faolligini inobatga olgan holda mazkur mezon bo'yicha qo'shimcha 5 ball qo'shib berilsin (jami maksimal ballga yetkazilsin).

3. Aniqlangan xatoliklar va kelgusida bunday holatlarning takrorlanishining oldini olish maqsadida barcha tyutorlardan talabalarni baholash jarayonida o'ta e'tiborli, mas'uliyatli va adolatli bo'lish talab etilsin.

4. Mazkur bayon ijrosini ta'minlash va nazorat qilish komissiya raisi **M.Isroilov** zimmasida qoldirilsin.

Komissiya raisi:



M.Isroilov

Komissiya kotibi:



S.No'monjonov